

## “IJTIMOIY TARMOQLARNING INGLIZ TILINI O’RGANISHDA HISSASI”

**Egamberdiyeva I.**

ADCHTI, o’qituvchi

**Umarova B.**

ADCHTI, o’qituvchi

**Nozimova Maftuna**

ADCHTI, o’quvchi

### Annotatsiya

Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning ingliz tilini o’rganishga ta’siri tahlil qilinadi. Hozirgi kunda Instagram, YouTube va TikTok kabi platformalar nafaqat muloqot va ko’ngilochar vosita, balki samarali ta’lim manbai sifatida ham xizmat qilmoqda. Maqolada ijtimoiy tarmoqlarning ingliz tilini o’rganishdagi ijobiy jihatlari, jumladan, til muhiti yaratish, so‘z boyligini oshirish va real muloqot imkoniyatlarini kengaytirish kabi omillar ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, ularning salbiy tomonlari, ya’ni chalg‘ituvchi omillar va noto‘g‘ri til namunalarining mavjudligi ham tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida ijtimoiy tarmoqlardan to‘g‘ri va maqsadli foydalanish ingliz tilini samarali o‘rganishga yordam berishi aniqlanadi.

**Key words:** ijtimoiy tarmoqlar, ingliz tilini o’rganish, til ko‘nikmalari, motivatsiya, kommunikatsiya, onlayn ta’lim, til muhiti, chalg‘ituvchi omillar, raqamli texnologiyalar, o‘quv jarayoni.

### Kirish

Bugungi zamonaviy hayotimizni ijtimoiy tarmoqlarsiz tasvvur qila olmasligimiz shubhasiz. Kundalik jadvalimizdan o‘rin olib ulgurgan YouTube, Instagram va TikTok kabi tarmoqlar bugungi kunda kiyinish uslubimiz, yashash tarzimiz va qanday taomni

iste'mol qilishimizgacha belgilab bermoqda. Tanganing ikki tarafi bor deganlaridek, biz bu tarmoqlarining ingliz tilini yoyilishi va boshlang'ich til o'rganuvchilari uchun tug'dirishi mumkin bo'lgan muammo va foydalarini ko'rib chiqamiz.

Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi sifatida tan olishimiz kerak-ki, biz kuzatadigan blogger va kontent yaratuvchilari sahifasi a'zolari bilan ingliz tilida suhbat olib boradi va bu tilni bog'lovchi sifatida foydalanadi. Albatta, bu tarmoqlarning yaratilish nuqtasini va foydalanuvchilar nisbatini hisobga oladigan bo'lsak, bu tabiiy holdek tuyulishi mumkin. Ammo, ingliz tili global tilga aylangani sari dunyo bo'yicha uni o'rganishga va yoyishga talab ham oshib bormoqda. Shunday qilib, bu tilni o'rganishda ijtimoiy tarmoqning foydalariga to'xtalsak:

### **1. Original(asl) manbalardan foydalana olish imkoniyati.**

Ingliz tili turfa xil badiiy va ilmiy asar va qo'lyozmalarni manbaasi hisoblanadi va internet orqali o'zingizga zarur bo'lgan material va ma'lumotlarni topa olishingiz mumkin. Endigina til o'rgana boshlaganlar ham, o'z ustida ishlamoqchi bo'lgan o'zga millatga mansub shaxslar ham yuqori darajaga ega o'qituvchi va olimlardan video dars olish imkoniyatiga ega bo'lishadi, bu darslarning YouTube va boshqa tarmoqlar orqali bepulga tomosha qilish (tajribali mutaxassislarining ishlari va darslari anchagina qimmat turishini hisobga olsak) mumkinligining o'zi kattagina foyda nazarimda. Misol uchun, tibbiyot sohasi uchun ma'lumot to'playotgan o'quvchi o'z tilida yig'ganlaridan ikki baravari (100 karra ko'proq bo'lsa ham ajablanmagan bo'lar edim)ni topa olishi mumkin. Tajribali jarroh va tibbiyot hodimlarining o'tkazgan operatsiya va tajribali to'liq ingliz tilida yoritiladi va tavsiflanadi. Ta'lim sohasidan misol keltiradigan bo'lsak, dunyo tan olgan yozuvchilar va dastur yozuvchilari, kuchli o'qituvchi va mutaxassislar ham ingliz tilida davlatlarida ulg'ayishgan yohud bu tilda ko'proq ijod qilishgan desam adashmagan bo'laman. Qisqa qilib aytganda, ingliz tili ma'lumotlar oqimiga eshik bo'la oladi.

### **2. So'z boyligini oshiradi**

Yuqorida keltirib o'tganimiz kabi ijtimoiy tarmoqlarsiz bir kunimiz tasvvur qilish qiyin bo'ladigan darajada ularga bog'lanib qolganmiz va tilni o'rganishimizda bu anchagida qo'l keladi, desam hayron bo'lmasangiz kerak , albatta. Til o'rganish samaradorligini oshiradigan omillardan biri bo'lgan so'z boyligi kundalik qaytariladigan mashg'ulotlar orqali mustahkamlanib boradi . Endigina til o'rganishni boshlagan o'quvchilarga mutaxassislar ijtimoiy tarmoq tilini ingliz tiliga o'zgartirishni va shu tilde ijod qiluvchi kontent yaratuvchilariga obuna bo'lishni maslahat berishadi. Bu esa, tabiiyki, ko'p uchraydigan va ishlatiladigan so'zlarni yodlash va esda saqlab qolishda katta yordam beradi. Birgina Instagramda ko'rilgan yarim soatlik qisqa videolar ham kamida yuzlab yangi va tanish so'zlarni o'z ichiga oladi.

### **3. Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantiradi**

Tajriba natijalariga ko'ra 70% yodda saqlab qolish eshitish orqali amalga oshadi. Ko'plab mutaxassislar kitoblarni audio+ yozma shaklda o'rganish tushunish va esda saqlab qolish darajasini kuchaytiradi, deb maslahat berishadi. Tabiiyki, videolarni tomosha qilar ekanmiz unda foydalanilgan sheva va talaffuz miyyamizga o'rnashadi va o'rganish samaradorligini oshiradi. (Ingliz tilida deyarli barcha so'zlar (akustik) talaffuzda yozilganidan farq qilishini ham hisobga oling). Ingliz tilida yaratilgan va bugungi kunda ommabop hisoblangan film va multfilmlar, qisqa metrajli va hujjatli filmlar barcha uchun birdek imkoniyat, nazarimda.

### **4. Erkin muloqot va madaniyatlarni yoyishni kafolatlaydi**

Insonlarni chegaralarsiz bog'layotgan ijtimoiy tarmoqlar endilikda madaniyatlarni ham bog'laydigan ko'prik bo'lib ham xizmat qilmoqda. Birgina ingliz tilidagi bilim tufayligina katta miqdordagi va turfa yoshdagi insonlar do'stlar orttirishmoqda yoki munosabatlar bog'lashmoqda. Haqiqiy va tub aholi bilan bevosita suhbat olib borish va o'rganilgan bilimni amalda qo'llash eng katta yutuqlardan biri, aslida. Misol uchun , siz mushuk sotib oldingiz va uni qanday parvarish qilish , qaysi payti shifokorga olib boorish, qanday maxsulotlar bilan oziqlantirish va tanasini parvarish qilish jarayonida qanday

sinalgan va samarali maxsulotlardan foydalanish to'g'risida ma'lumotga ega emassiz, ammo siz ingliz tilida erkin suhbatlasha olasiz, tabiiy-ki, onlayn davra suhbatlari va sahifalari sizdan yordamini ayashmaydi va siz bizgina mushugingiz uchun yordam emas, bir necha tanishlarga ham ega bo'lasiz.

Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarning ayrim salbiy jihatlari ham mavjud. Eng asosiy muammolardan biri — chalg'ituvchi omillarning ko'pligidir. Ko'plab o'quvchilar ta'limiy kontent o'rniga ko'proq ko'ngilochar materiallarga e'tibor qaratadi, natijada vaqt samarasiz sarflanadi va o'rganish jarayoni sustlashadi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda berilayotgan barcha ma'lumotlar ham ishonchli va ilmiy asoslangan emas. Ayrim videolar yoki postlarda noto'g'ri grammatika, noaniq talaffuz yoki haddan tashqari norasmiy (slang) ifodalar uchraydi, bu esa o'quvchilarda xato bilimlar shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Yana bir muhim jihat shundaki, ijtimoiy tarmoqlar o'quvchilarda diqqatning tez chalg'ishiga sabab bo'ladi. Doimiy ravishda bildirishnomalar (notifications) kelib turishi o'quv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi va diqqatni jamlashni qiyinlashtiradi. Shuningdek, ayrim o'quvchilar ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari bog'lanib qolishi mumkin, bu esa ularning umumiy o'qish samaradorligiga salbiy ta'sir etadi. Shu sababli, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda me'yorni saqlash, ishonchli manbalarni tanlash va ularni maqsadli ravishda qo'llash juda muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda ingliz tilini o'rganishda muhim va samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ular o'quvchilarga nafaqat til ko'nikmalarini rivojlantirish, balki real kommunikativ muhitda o'z bilimlarini sinab ko'rish imkoniyatini ham yaratadi. Ayniqsa, autentik materiallarning ko'pligi va o'rganish jarayonining moslashuvchanligi ijtimoiy tarmoqlarning asosiy ustunliklaridan hisoblanadi.

Biroq, ushbu platformalardan noto'g'ri va me'yorsiz foydalanish o'quv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun o'quvchilar ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda tanqidiy yondashuvni shakllantirishi, ishonchli manbalarni tanlashi va o'z

vaqtini to'g'ri taqsimlashi zarur. Umuman olganda, to'g'ri tashkil etilgan holda ijtimoiy tarmoqlar ingliz tilini o'rganishda samaradorlikni sezilarli darajada oshiruvchi zamonaviy vosita hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Harmer, J. (2007). *How to Teach English*. Longman.
2. Crystal, D. (2011). *Internet Linguistics: A Student Guide*. Routledge.
3. Thornbury, S. (2006). *An A–Z of ELT*. Macmillan.
4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2001). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
5. Warschauer, M. (1996). *Computer-Assisted Language Learning: An Introduction*.